

TIBBIYOT SOHASIDA KO'RSATILAYOTGAN TIBBIY XIZMATLARNI TARTIBGA SOLISHNING FUQAROLIK HUQUQIY ASOSLARI

Jamshid Abdulayev Djamilovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa

doktori (PhD), "Adliya a'lochisi" Email: jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot sohasida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni tartibga solishning fuqarolik huquqiy asoslari va tibbiy xizmat ko'rsatishga oid shartnomaviy huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek alohida jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Avesto, Trita, Xaoma, zamonaviy kasalxonalar, 1897-yil, jigar transplantasiyasi, yurak va o'pka transplantatsiyasi, buyrak ko'chirib o'tkazish, yurakni stentlash amaliyoti, surrogat onalik, EKU (sun'iy urug'lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar).

Insoniyat o'z rivojlanishining dastlabki davridan bugunga qadar sihat-salomatligini ta'minlashga ehtiyoj sezgan. Tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi genezisi masalasi turli davrlarda qanday ko'rinishda bo'lmasin bir xil ahamiyat kasb etadi. Demak tibbiy xizmatlarning rivojlanish genezisini chuqur tadqiq etish lozim. Bu o'z navbatida taraqqiyotning barcha bosqichlarida ko'rsatilayotgan tibbiyot sohasidagi xizmatlarning turlari hamda shu davr tibbiyoti uchun texnika taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Qisqacha yurtimizda tibbiy xizmat ko'rsatish genezisiga to'xtalsak. Professor Jasur Rizayevning fikricha: "Avesto Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida yashagan xalqlarning aqidalari haqidagi kitob. Kitob qismlaridan bo'lgan «Vendidat»da yozilishicha, birinchi bo'lib Trita ismli zot tabiblik bilan shug'ullangan va u odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Tritaga yaxshilik «ilohi» Oxuramazda kasallarni davolash uchun samodan 10

mingta xil dori yuborgan. Trita shuningdek, Xaoma deb ataluvchi mast qiluvchi va narkotik xususiyatga ega bo‘lgan ichimlikni kashf etgan, Xaoma esa hayot va salomatlik manbai deb atalgan. Kitobda Trayeton ismli tabib haqida ham ma’lumot keltirilgan va islomgacha uni tabiblik «ilohi» deb atagan”¹. Matndan ma’lum bo’ladiki, yurtimizda qadimgi davrdan boshlab tibbiy xizmatlar ko‘rsatish rivojlangan. Zamonaviy kasalxonalar tarixiga nazar tashlasak, Toshkentdagи mahalliy ayollar va bolalar shifoxonasining 1897-yilgi hisobotida bir yil davomida har oyda shifoxonaga murojaat qilgan bemorlar soni va ularning milliy tarkibi ro‘yxati qayd qilingan. Ular orasida tarqalgan kasalliliklar 21 guruhga bo‘lingan”². Boshqa shaharlardagi xususan, Qo‘qon shahri mahalliy ayollar va bolalar shifoxonasi faoliyati³, Namangan⁴ va Eski Marg‘lon⁵da shifoxonalar ochilishi va faoliyati, tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasida birinchi darajali manba vazifasini bajaradi. Ilm-fanning taraqqiyoti bugun klassik shartnomlar mohiyatini o‘zgarishga majbur qilmoqda. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida “xizmatlar bozori so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi: ko‘plab xizmatlar paydo bo‘ldi, ilgari jamiyatimizda bo‘lmagan fan-texnika taraqqiyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi va albatta jahon miqyosidagi o‘sish tendensiyasi iqtisodiy munosabatlar tarkibida xizmatlar paydo bo‘ldi”⁶. Rivojlangan mamlakatlarning katta qismida axborot texnologiyalar va texnika taraqqiyoti tufayli aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning turi va ko‘lami kengaymoqda. Shunday xizmatlarning turlari sifatida tibbiyotga ham bir qancha yangi ko‘rinishdagi: jigar transplantasiysi, zamonaviy tibbiyot texnologiyalari, yurak va o‘pka transplantatsiyasi, buyrak ko‘chirib o‘tkazish amaliyoti, yurakni stentlash amaliyoti, surrogat onalik, EKU (sun’iy urug‘lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar) kabilar vujudga keldi. Tadqiqotchi Ye.G.Shablova “Fuqarolik huquqida pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatish komponent

¹ https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-tibbiyot-rivoji-va-zamonaviy-sogliqni-saqlash-tizimi-qanday-shakllangan_336447

² Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.17-фонд, 1-рўйхат, 28996-иш, 2-8 вароқлар

³ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 36654-иш, 1-85 вароқлар

⁴ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2065-иш, 35 вароқлар

⁵ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 24096-иш, 1-29 вароқлар

⁶ О.В.Горбунова Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУиТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug>.

sifatida shartnoma ham kengroq tushunchaning bir qismi – xizmatlar”⁷ deb ta’kidlaydi. Ammo, tibbiyat sohasida shartnomalarni shartnomaviy huquqiy munosabatlari masalasida olimlarning fikrlari turlicha bo‘lganligini qayd etishimiz lozim. Sirdan qaraganda tibbiyat sohasida mavjud xizmatlarni shartnomaviy xususiyatlarini o‘rganishga ehtiyoj yo‘qdek tuyuladi. Ammo bugungi davr bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan tibbiyat sohasidagi davlat tibbiyat muassasalarida tibbiy xizmat turlarining kengayganligi bilan bir qatorda mulkchilik shakliga ko‘ra xususiy tibbiyat amaliyoti bilan shug‘ulanuvchi muassasalarining soni va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmat turlari kengaydi. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayonlari murakablashdi. “Ilgari faqat sud asosida ko‘rib chiqilgan ko‘plab masalalar amaliyotlari endi qonun darajasida tartibga solinadi, bu ham qonun ijodkorligining sifatiga, ham huquqiy tartibga solish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa muhimmi, majburiyatlar sabab bo‘lgan fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga etkazilgan zarar kodekslangan qonun hujjatlarida asosiy tartibda tartibga solinishi lozim”⁸. Aholining katta qismi xususiy tibbiyat klinikalariga murojaat qilishi va mavjud muammolar haqida A.A.Moxov quyidagi fikrlarini bayon etadi: “Tibbiyotni huquqiy tartibga solishning tegishli darajasiga erishish uchun, shuningdek duch keladigan muammolarni samarali hal qilish imkonini beradigan tegishli tadbirlar milliy sog‘liqni saqlash, huquqiy mavjud muammolarga javob berishni anglatadi va aholi salomatligiga tahdidlar, milliy darajada tibbiy faoliyatni huquqiy tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur”⁹. Barcha mamlakatlarda respublikamizda bo‘lgani kabi “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat

⁷ Шаблова Е.Г. Гражданское-правовое регулирование отношений возмездного оказания услуг: дис... д.ю.н. Екатеринбург, 2003. 363 с. <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoe-regulirovanie-otnoshenii-vozmezdnoego-okazaniya-uslug>

⁸ С.А. Чулукова Теория и практика применения гражданского-правового договора при оказании медицинских услуг// Право и государство: теория и практика. 2018. №10 (166). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-i-praktika-primeneniya-grazhdansko-pravovogo-dogovora-pri-okazanii-meditsinskikh-uslug>

⁹ А.А. Моков. Медицинское право. DOI: 10.17803/1994-1471.2023.149.4.093-104. Концепция правового регулирования медицинской деятельности; <https://aprp.msal.ru/jour/article/download/3880/2112>

hisoblanadi” tamoyilidan kelib chiqsak, yurtimizda ham tibbiy faoliyatni huquqiy tartibga solish konsepsiysi kerak ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

“Tibbiyotning markazida faoliyat - bu muhtoj fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmatlar. An‘anaviy tarzda ta’minlash xizmatlar eng ko‘p talab qilinadigan xizmatlardan biri - fuqarolik muomalasi ob’yektlaridir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning tibbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida tutgan o‘rni va roli haqida savol tug‘iladi. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha normalarni o‘rganilayotgan munosabatlarga kengaytirish va maqbulligi so‘nggi fuqarolik qonuniga shartnomalari tuzilmalari yuklash kerak”¹⁰. Tadqiqotchi E.S.Kryukovaning yuqorida bayon qilingan fuqarolik muomalasi ob’yekti - tibbiy faoliyat ekanligi fikriga qo‘shilamiz.

Yuqorida qayd qilinganidek, insonga taqdim qilingan ne’matlarning eng kattalaridan biri sihat-salomat hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi, tehnika taraqqiyoti bilan insonga tabiiy taqdim qilingan tana a’zolarini ham tashqi aralashuvlar ko‘magida davolash imkoniyatini vujudga keltirdi. Fikrimizni statistik raqamlarda isbotlasak: “2006 yilda Amerika Qo’shma Shtatlarida yurak qopqog‘i kasalligi bilan bog‘liq umumiy taxmin qilingan o‘lim 19,989 o‘limni tashkil etdi”¹¹. Yuqorida berilgan raqamlarda bayon etilgan kasallikka chalingan bemorlarning katta qismiga tibbiy shartnomaviy xizmat ko‘rsatilgan. Biroq hamma mazkur jarrohlik amaliyotlaridagi vaziyatlarda ham ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar sifatli va samaradorligi baland bo‘lmaganligi tufayli ko‘plab mijoz bemorlar vafot etishgan. Bunday o‘limni aks etdiruvchi rasmiy statistika raqamlari birgina AQSH emas balki har bir mamlakatda uchratishimiz mumkin. Masala mazkur raqamlar tahlilida emas, aksincha raqamlar ortida inson hayoti, uning sihat salomatligi hamda globallashuv sharoitida aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar bilan bog‘liqdir. “1953-yil 6-mayda amerikalik jarroh jon Gibbon tomonidan taklif qilingan yurak-o‘pka apparati yordamida interatrial septum

¹⁰ Е.С.Крюкова. Особенности правового режима медицинской услуги. DOI: 10.18287/2542-047X-2022-8-2-18-24; УДК 347.4.

¹¹ Rosamond W, Flegal K, Friday G, et al.; American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Heart disease and stroke statistics—2007 update: a report from the American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Circulation 2007; 115:e69–e171 [Erratum in Circulation 2007; 115:e172]

nuqsonining birinchi muvaffaqiyatli yopilishi dunyoni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu operatsiya ishtirokchilari o‘sha daqiqalarda yurak jarrohligiga nima sabab bo‘lishini tasavvur qilishmagan. Birinchi ko‘tarilish va keyinchalik yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muqarrar pasayishlar tadqiqotchilarni bir qator muammolarni progressiv hal qilishga undadi. Ulardan biri yurakning qopqoq nuqsonlarini tuzatish edi”¹². Demak, AQSH vakili jarroh jon Gibbonning mazkur jarrohlik amaliyoti juda ko‘plab inson ichki a’zolarining tashqi aralashuvlar ko‘magida davolash yoki soda qilib aytganda umrini uzaytirishga xizmat qilishini isbotladi. Keyingi asrning ilm-fan va tehnika taraqqiyoti bu jarayonni yanada jadallashtirdi. Bu o‘rinda mazkur raqamlarni xususiy ahamiyatga ega zamонавиј тиббијати atamalar bilan yoritish maqsadga muvofiq: “Aorta qopqog‘i kasalligi 12,471 o‘limni va mitral qopqoq kasalligi 2,759 o‘limni tashkil etdi, qolganlari trikuspid va o‘pka klapanlari kasallikkleri o‘rtasida teng taqsimlandi. Ekokardiyografi va MRI yurakni baholash uchun asosan ishlatiladigan tasvirlash texnikasi”¹³. Mazkur yurakka oid kasallikkarni bartaraf etish uchun keyingi tadqiqotlar yechim vazifasini bajardi. Shunday tadqiqotlardan biri: “1951-yilda Charlz Xufnagel tomonidan aorta etishmovchiligi bo‘lgan bemorlar uchun ko‘krak aortasida implantatsiya uchun metil metakrilatdan yasalgan sharsimon valfning rivojlanishi kiradi. Buni muvaffaqiyatli implantatsiya qilish tushayotgan aortadagi dizaynlar, birinchi navbatda, aortaga begona jismlarni implantatsiya qilish g‘oyasining maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi”¹⁴. Yuqoridagi yurak jarrohlik amaliyoti bog‘liq statistika raqamlari, mulohazalar, barcha ma’lumotlar dastlab inson salomatligida mavjud kasallikkarni davolash vositasi bo‘lib xizmat qildi. Rivojlangan mamlakatlarda bu turdagи ijtimoiy

¹² Ю.Л.Шевченко, Т.В.Цветкова, В.Г.Гудымович. Отдаленный результат протезирования митрального и аортального клапанов сердца отечественными шаровыми протезами через 35 лет после операции (клиническое наблюдение с кратким обзором литературы) // Вестник Национального медико-хирургического Центра им. Н. И. Пирогова. 2020. №3-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otdalennyj-rezul'tat-protezirovaniya-mitral'nogo-i-aortal'nogo-klapanov-serdtsa-otechestvennymi-sharovymi-protezami-cherez-35-let>.

¹³ Rahimtoola Sh. The year in valvular heart disease. J Am Coll Cardiol 2007; 49:361 –374

¹⁴ Ю.Л.Шевченко, Т.В.Цветкова, В.Г.Гудымович. “Отдаленный результат протезирования митрального и аортального клапанов сердца отечественными шаровыми протезами через 35 лет после операции (клиническое наблюдение с кратким обзором литературы)” Вестник Национального медико-хирургического Центра им. Н. И. Пирогова, vol. 15, no. 3-2, 2020, pp. 172-178.

munosabatlar tibbiyotda xususiy sektorning faoliyati mavjudligi omilidan kelib chiqib, haq evaziga hamda aholining ehtiyojmand qatlami uchun davlat hisobidan qoplangan. Sobiq Ittifoq mamlakatlarida asosiy tibbiyot muassasalari davlat tasarrufida ekanligidan kelib chiqsak, sobiq Sovet ittifoq parchalangach ko‘pgina davlatlarda bir tomonlama tibbiyot tashkiloti tomonidan taqdim qilingan yo‘riqnomalar yoki jarrohlik amaliyotiga mijoz (bemor)ga tegishli shaxsni tasdiqlovchi hujjat hamda uning yoki oila a’zolarining rozilik xatlari ilova qilinishi asosida rasmiylashtirish amaliyoti kuzatila boshlandi. Tibbiyot sohasida xususiy sektorning faollashuvi jarayonida mazkur amaliyotning huquqiy bo‘shliqlari namoyon bo‘lib qoldi. Biroq xalq yillar davomida shakllangan milliy mentalitetida davlatga tegishli tibbiyot idorasini sudga berish dastlab quyin bo‘lsa-da, aholi orasida mavjud o‘limlarning ko‘payishi zaruriyati tufayli kun tartibiga chiqdi. Fikrimizni rasmiy manbalar bilan isbotlaymiz: “Joriy yilning 5-mart kuni vafot etgan «Mittivine» taxallusi bilan tanilgan bloger Farhod Mannopov operatsiya qilingan klinikadagi shifokorda malakaviy toifa bo‘lmagan. Bu haqda SSV blogerning o‘limi yuzasidan «Star Med Center» klinikasida o‘tkazilgan tekshiruv natijalarida ma’lum qilmoqda”¹⁵. Demak, bu masalada tibbiy xizmatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solish, shuningdek, tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shartnomalarni, kelishuvlarni takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi. Ayni paytda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar turi ko‘لامи kengayib, davolash sohasiga xususiy sektorning faol aralashuvlari hamda murakab jarrohlik amaliyotlari bilan ham xususiy sektorga ruxsat berilishini, odatda taraflar amaliyotda bunday tibbiy xizmatlarni erkin narx asosida kelishuv bilan hal qilishlarini nobatga olib, tibbiy xizmatlar huquqiy tartibga solish ehtiyoji vujudga keladi. Mamlakatimizda tibbiyot sohasida munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1996-yil 14-sentabrda 265-I-son bilan fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash uchun 47 moddadan iborat O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. Xusan, fuqarolarning sog‘liqni saqlash masalasida shartnomaviy munosabatlar

¹⁵ <https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/farhod-mannopov-mittivinening-olimi-bilan-bogliq-qoshimcha>

qonunning 29-moddasida berilgan: “Xususiy va boshqa xil sog‘liqni saqlash tizimlarining muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami shartnoma asosida amalga oshiriladi ushbu Qonun 10-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq shunday yordam ko‘rsatiladigan fuqarolarning ayrim guruhlari bundan mustasno”¹⁶. Yuqoridagi qonun bilan mamlakatimizda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi munosabatlar tizimi umumiy asosda huquqiy asoslantirildi. Yurtimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining 24 moddadan iborat “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni 2019-yil 12-martdagি O‘RQ-528-son bilan qabul qilinib, unda “Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat”¹⁷ – deb qayd qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 8 va 9-bandlarini ijro etish maqsadida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar platformasi¹⁸ tashkil qilindi. Bundan tashqari tibbiy xizmatlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-iyundagi PQ-3039-son bilan “Toshkent shahri aholisiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligi uchun rahbarlar va mutaxassislarining kasbiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁹gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-noyabrdagi PQ-6-son bilan qabul qilingan “Ahолига tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”²⁰gi

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son

¹⁷ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019-y., 03/19/528/2741-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

¹⁸ <https://ijtimoiy-xizmat.uz/uz/>

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 23-son, 459-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son

²⁰ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2021-y., 07/21/6/1039-son.

qarori qabul qilingan. Tibbiy xizmatlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari, shuningdek, “Sog‘lijni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashishni kuchaytirish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga yuqori texnologiyali sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijdan investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislar jalg etishni kengaytirish, shuningdek, tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish maqsadida”²¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lijni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Farzandsiz oilalarga farzand ne’matini taqdim qilish, erta ajralishlarni oldini olish maqsadida sun’iy urug‘lantirish masalasini ham huquqiy tartibga solish lozim edi. Chunki aynan shu soha bilan bog‘liq xizmatlarni fuqarolarimiz Turkiya, Dubay, Hindiston va boshqa xorijiy mamlakatlarda amalga oshirayotganligi hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Yurtimizda “yordamchi reproduktiv texnologiyalar urug‘lantirishning ayrim yoki barcha bosqichlarida ayolning organizmidan tashqarida amalga oshiriladigan homiladorlikka erishishga qaratilgan tibbiy texnologiyalar, davolash usullari va muolajalari”²² bilan bog‘liq jarayonlarni huquqiy taribga solish uchun 2020-yil 6-fevralda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3217 bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirining “Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug‘i qabul qilindi. Demak, mazkur norma bilan ushbu soha tartibga solinayotganligi haqidagi haqli xulosaga kelishimiz mumkin. Sog‘lijni saqlash sohasidagi huquqiy munosabatlar tomonlarining huquq va majburiyatları, shuningdek ayrim turdagı tibbiyot va farmatsevtika faoliyatini huquqiy tartibga solish maqsadida: “Sog‘lijni saqlash vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash kodeksi loyihasi ishlab chiqildi. Norma’ning yozishicha, hujjatda sog‘lijni saqlash sohasiga oid amaldagi qonunlar,

²¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 06/21/6318/0927-son, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son

²² Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2020-y., 10/20/3217/0136-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2021-y., 10/21/3217-1/0463-son, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son

qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalari birlashtirilgan va birxillashtirilgan. Hujjat 21 bob va 180 moddadan iborat. Kodeks loyihasiga sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy atamalar va tushunchalar bo‘limi ham kiritilgan. Sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy yordamni tashkil etish batafsil yoritilgan”²³. Demak, mazkur kodeks loyihasining tayyorlanishi tibbiyot sohasida mavjud munosabatlarni tartibga solish uhun katta qadamlardan biridir. Xalqimizning keng qatlami, jamoatchilik va soha mutaxassislarining kodeksga taklif kiritilislari maqsadida mazkur norma loyihasi muhokamaga qo‘yilgan.

Tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni tartibga solishning fuqarolik huquqiy asoslari masalalarini ilmiy-nazariy tahlili natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, zamonaviy tibbiyot bizga taqdim etayotgan jigar transplantasiysi, zamonaviy tibbiyot texnologiyalari, yurak va o‘pka transplantatsiyasi, buyrak ko‘chirib o‘tkazish amaliyoti, yurakni stentlash amaliyoti, surrogat onalik, EKU (sun’iy urug‘lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar) kabi amaliyotlarni umumiyl tartibda, maxsus norma shaklida yoki fuqarolik huquqiy shartnomalar ko‘magida inson va fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan o‘z salomatliklariga bo‘lgan huquq va erkinlarini samarali mexanizm bilan himoyalash kerak.

ikkinchidan, tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

uchinchidan, tibbiyot huquqini zamonaviy tehnika taraqqiyoti tufayli paydo bo‘lgan yangi davolash usul va vositalarini inobatga olib, huquqiy xususiyatlarini hozirgi zamon ruhida ko‘rib chiqish lozim.

to‘rtinchidan, davolash, tananing ichki a’zolariga tashqi aralashuvlar, jarrohlik amaliyoti bilan xususiy tartibda shug‘ullanuvchi tibbiyot muassalarining xizmat ko‘rsatishlari rivojlangan davlatlarning joriy qonunchilgini hamda shu tipdagi

²³ <https://kun.uz/news/2020/11/27/sogliqni-saqlash-kodeksi-loyihasi-ishlab-chiqildi?q=%2Fnews%2F2020%2F11%2F27%2Fsogliqni-saqlash-kodeksi-loyihasi-ishlab-chiqildi>

shartnomalarini ilmiy nazariy asosda o‘rganishlar asosida milliy norma ijodkorligimizni implementatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019-y., 03/19/528/2741-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
- 3.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 23-son, 459-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2021-y., 07/21/6/1039-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 06/21/6318/0927-son, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son
6. Rosamond W, Flegal K, Friday G, et al.; American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Heart disease and stroke statistics—2007 update: a report from the American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Circulation 2007; 115:e69–e171 [Erratum in Circulation 2007; 115:e172]
7. Шевченко Ю.Л., Цветкова Т.В., Гудымович В.Г. Отдаленный результат протезирования митрального и аортального клапанов сердца отечественными шаровыми протезами через 35 лет после операции (клиническое наблюдение с кратким обзором литературы) // Вестник Национального медико-хирургического Центра им. Н.И.Пирогова. 2020. №3-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otdalennyy-rezultat-protezirovaniya-mitralnogo-i-aortalnogo-klapanov-serdtsa-otechestvennymi-sharovymi-protezami-cherez-35-let>.
<https://ijtimoiy-xizmat.uz/uz/>
8. Rahimtoola SH. The year in valvular heart disease. J Am Coll Cardiol 2007; 49:361 – 374
9. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.17-фонд, 1-рўйхат, 28996-иш, 2-8 вароқлар
10. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 36654-иш, 1-85 вароқлар
11. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2065-иш, 35 вароқлар
12. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 24096-иш, 1-29 вароқлар
13. Горбунова О.В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУиТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug>.

14. Е.Г.Шаблова. Гражданского-правовое регулирование отношений возмездного оказания услуг: дис... д.ю.н.
Екатеринбург, 2003. 363 с. <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoe-regulirovanie-otnoshenii-vozmezdnoego-okazaniya-uslug>
15. Чулюкова С.А. Теория и практика применения гражданского-правового договора при оказании медицинских услуг // Право и государство: теория и практика. 2018. №10 (166). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-i-praktika-primeneniya-grazhdansko-pravovogo-dogovora-pri-okazanii-meditsinskikh-uslug>
16. Rosamond W, Flegal K, Friday G, et al.; American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Heart disease and stroke statistics—2007 update: a report from the American Heart Association Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Circulation 2007; 115:e69–e171 [Erratum in Circulation 2007; 115:e172]
17. А.А.Мохов. Медицинское право. DOI: 10.17803/1994-1471.2023.149.4.093-104.
18. Е.С.Крюкова. Особенности правового режима медицинской услуги. DOI: 10.18287/2542-047X-2022-8-2-18-24; УДК 347.4.
19. Концепция правового регулирования медицинской деятельности; <https://aprp.msal.ru/jour/article/download/3880/2112>
20. <https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/farhod-mannopov-mittivinening-olimi-bilan-bogliq-qoshimcha>
21. <https://kun.uz/news/2020/11/27/sogliqni-saqlash-kodeksi-loyihasi-ishlab-chiqildi?q=%2Fnews%2F2020%2F11%2F27%2Fsogliqni-saqlash-kodeksi-loyihasi-ishlab-chiqildi>
22. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-tibbiyat-rivoji-va-zamonaviy-sogliqni-saqlash-tizimi-qanday-shakllangan_336447